



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 3**

**2026**

## **AKSIOLINGVISTIKA: TIL VA QADRIYATLAR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK**

**Boymatova Dilnoza Baxtiyorovna**  
Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent, PhD

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada aksiolingvistika — til va qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadigan lingvistik yo'nalish sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda til birliklari orqali jamiyatda shakllangan axloqiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarning qanday ifodalanishi hamda ularning nutq jarayonida namoyon bo'lishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tilning nafaqat kommunikativ vosita, balki jamiyatning qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim madaniy mexanizm ekanligi asoslab beriladi. Maqolada qadriyatlarning leksik birliklar, frazeologizmlar, maqol va matallar hamda badiiy matnlar orqali ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida aksiolingvistik yondashuv asosida til birliklarining semantik va pragmatik jihatlari ko'rib chiqilib, ular orqali milliy mentalitet va madaniy qarashlarning aks etishi yoritiladi. Natijada til va qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslanadi hamda aksiolingvistikaning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** aksiolingvistika, qadriyat, til va madaniyat, aksiologiya, lingvokulturologiya, milliy qadriyatlar, semantik tahlil, madaniy kod, til birliklari, milliy mentalitet.

## **АКСИОЛИНГВИСТИКА: ВЗАИМОСВЯЗЬ ЯЗЫКА И ЦЕННОСТЕЙ**

**Бойматова Дилноза Бахтиёровна**  
Джизакский государственный педагогический университет, доцент, PhD

### **Аннотация**

В данной статье аксиолингвистика рассматривается как лингвистическое направление, изучающее взаимосвязь языка и ценностей. Анализируется, каким образом посредством языковых единиц выражаются нравственные, культурные и социальные ценности, сформированные в обществе, а также их проявление в процессе речи. Обосновывается, что язык выступает не только как средство коммуникации, но и как важный культурный механизм, отражающий систему ценностей общества. Рассматриваются особенности выражения ценностей через лексические единицы, фразеологизмы, пословицы, поговорки и художественные тексты. На основе аксиолингвистического подхода анализируются семантические и прагматические аспекты языковых единиц, через которые раскрываются национальный менталитет и культурные представления. В результате научно обосновывается взаимосвязь языка и ценностей и определяется место аксиолингвистики в современной лингвистике.

**Ключевые слова:** аксиолингвистика, ценности, язык и культура, аксиология, лингвокультурология, национальные ценности, семантический анализ, культурный код, языковые единицы, национальный менталитет.

## **AXIOLINGUISTICS: THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND VALUES**

**Boymatova Dilnoza Bakhtiyorovna**  
Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor, PhD

### **Abstract**

This article analyzes axiologistics as a linguistic field that studies the relationship between language and values. The research examines how moral, cultural, and social values formed in society are expressed through language units and how they manifest in the process of speech. It also substantiates that language is not only a communicative tool but also an important cultural mechanism that reflects the system of values of a society. The article analyzes the ways in which values are expressed through lexical units, phraseological expressions, proverbs and sayings, as well as literary texts. During the research process, the semantic and pragmatic aspects of language units are examined on the basis of the axiologistic approach, and through them the reflection of national mentality and cultural perspectives is highlighted. As a result, the integral relationship between language and values is scientifically justified, and the role of axiologistics in modern linguistics is demonstrated.

**Keywords:** axiologistics, value, language and culture, axiology, linguoculturology, national values, semantic analysis, cultural code, language units, national mentality.

Tilshunoslikning falsafa fani negizida shakllanganligi ma'lum hodisadir. Shuni ta'kidlash lozimki, falsafa, filosofiya – insonning dunyoda tutgan o'rni va dunyoqarashining yaxlit tizimini ifodalovchi ma'naviy faoliyatining bir shakli [5] sifatida qator funksiyalarga ega. Xususan, mazkur fanning dunyoqarashlik, gnoseologik, metodologik, sotsiologik, aksiologik, antropologik, mantiqiy, psixologik va mafkuraviy funksiyalari bor. Har bir funksiyalari o'zining bajarilish maqsadlari bilan uzviy bog'langan. Bugungi kichik kuzatishimizda falsafaning aksiologik vazifasi bilan integratsiya qilingan tilshunoslikning zamonaviy sohalaridan biri – aksiolingvistika haqida fikr yuritamiz.

Aksiologiya falsafaning alohida bo'limi bo'lib, unda borliq tushunchasi ikki element – voqelik va qadriyatga ajraladi. Aksiologik tilshunoslik ham antropotsentrik xarakterga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Borliqdagi narsa-buyum, voqea-hodisalar yolg'iz inson ongidagina qadriyat sifatida muhimlik kasb etadi [4: 526].

Aksiolingvistika — tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida til birliklari va qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Mazkur so'z “aksiolog” (qadriyat) va “lingvistika” (tilshunoslik) birikmasidan kelib chiqqan bo'lib, uning asosiy maqsadi til orqali ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni aniqlash hamda tahlil qilishdir. Til faqat aloqa vositasi emas, balki insonning ijtimoiy ongini va madaniy merosini aks ettiruvchi hamdir. Shu sababli til birliklarini o'rganish orqali jamiyat qadriyatlarini ham tahlil qilish mumkin. Aksiolingvistika aynan shu bog'liqlikni ilmiy va amaliy jihatdan o'rganadi. Mazkur jarayonda aksiolingvistik birliklar asosiy vositachi hisoblanadi.

Aksiolingvistik birliklar — til ichida qadriyatni ifodalaydigan so'z va iboralardir. Mazkur birliklar “aksiologema” termini bilan yuritiladi. “Bu terminni ilk bor maqollar semantikasini tekshirish asosida Jukov tilshunoslikka olib kirdi: “Aksiologema aksiologik nuqtai nazardan ma'lum bir qadriyatni yoki antiqadriyatni belgilaydigan aforizmlar va so'zlar uchun umumiy semantik maydon hisoblanadi” [2: 209]. Ular insonning axloqiy, ijtimoiy va madaniy qarashlarini aks ettiradi, mazkur qarashlar qadriyat sifatida baholanadi. Maqol va matallar, hikmatli so'zlar, frazeologizmlar ana shunday qadriyat semasiga ega aksiologemalar sifatida qaraladi, chunki ularda nafaqat bir insonning, balki xalqning asrlar davomida saqlab va ardoqlab kelayotgan qarashlari aks etadi. Masalan:

1. Ijtimoiy qadriyatlar: hurmat, odillik, mehnatsevarlik
2. Madaniy va milliy qadriyatlar: milliylik, vatanparvarlik, an'anaviy oilaviy qadriyatlar
3. Universal qadriyatlar: tinchlik, inson huquqlari, tenglik

Bu birliklar lingvistik jihatdan sinonim, antonim va metaforik kontekstlarda tahlil qilinadi. Shu orqali har bir tilning qadriyatlarni aks ettirish usuli aniqlanadi va ularning madaniy tafovutlari ochib beriladi.

Hurmat:

O'zbek tilida: "Hurmat" ko'proq oilaviy va do'stona munosabatlarda ishlatiladi: "Ota-onaga hurmat insonning asosiy fazilatidir." "Kattaga hurmatda-kichikka izzatda bo'l".

Turk tilida: "Saygı" kengroq ijtimoiy va rasmiy kontekstdagi hurmatni bildiradi: "Öğretmenlerine saygı göstermek gerekir."

Bu misol tilning kontekstual tafovutini ko'rsatadi.

Mehnatsevarlik:

O'zbek tilida: "Mehnatsevarlik har bir insonning muvaffaqiyatga yetishida muhimdir". "Mehnat-mehnatning tagi rohat".

Turk tilida: "Çalışkanlık başarıya götürür."

Shu yerda ham ijtimoiy qadriyat birliklari turli madaniyatlarda turlicha ishlatiladi.

Milliylik / Vatanparvarlik:

O'zbek tilida: "Milliylikni saqlash – har bir fuqaroning burchidir".

Turk tilida: "Vatanseverlik toplumun birliğini güçlendirir."

Bu birliklar til orqali madaniy va siyosiy qadriyatlarni ham ifodalaydi.

Tinchlik

O'zbek tilida: "Tinchlik – barcha qadriyatlarning poydevori."

Turk tilida: "Barış her toplum için esastır."

Bu universal qadriyatning ikki til va madaniyatda qanday ifodalanganini ko'rsatadi.

Odillik:

O'zbek tilida: "Odillik jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi".

Turk tilida: "Adalet toplumun düzenini sağlar".

Ijtimoiy mas'uliyat:

O'zbek tilida: "Ijtimoiy mas'uliyatni anglash – har bir fuqaroning vazifasidir".

Turk tilida: "Sosyal sorumluluk her bireyin görevidir."

An'anaviy oilaviy qadriyatlar

O'zbek tilida: "Oilaga sodiqlik an'anaviy qadriyatdir".

Turk tilida: "Aileye sadakat geleneksel bir değerdir."

Shu o'rinda "Qadriyat nima o'zi?"-degan savol paydo bo'ladi. Mazkur savolga faylasuf va tilshunoslar turli xil, lekin o'xshash javoblarni berishgan: "Qadriyat odamlarning xulq-atvori va idrokiga ta'sir qiluvchi standartdir. U madaniyatning me'yoriy-qiymatli tushunchalarini o'rganish orqali dunyoning aksiologik tasvirining o'ziga xos xususiyatlarini ishonchli aniqlash imkonini beradi. Qadriyatlar madaniy o'lchovning asosini ifodalaydi va madaniy o'ziga xoslikni ifodalovchi hodisalarning mohiyatini belgilaydi. Qadriyatlar jamiyat, ijtimoiy guruhlar yoki shaxsning ideal maqsadi sifatida qaraladi. Ular ijtimoiy xatti-harakatlarning asosiy tartibga soluvchisi sifatida hodisalarni, voqealarni va harakatlarni baholashda aniq tayanch nuqtalari hisoblanadi" [3:33]. David Graeber esa "qadriyatlar — odamlar nimani xohlashi kerakligi haqidagi mezonlardir. Bu mezonlarga ko'ra, odamlar o'z xohish-istaklarini qonuniy va qadrli yoki qonuniy va qadsiz kabilarga ajratadilar. Shunday qilib, qadriyatlar hayotning ma'nosi bo'lmasada, balki hech bo'lmaganda, insonlarning undagi xohish-istaklari haqidagi g'oyalardir"-degan oldingi fikrga qarama-qarshi fikrni ilgari suradi [1: 317]. Demak, qadriyatlarni insoniyatning subyektiv baholash istagining natijasi sifatida talqin etishimiz to'g'riroq bo'ladi.

Aksiologivistik tadqiqotlarning yuzaga kelishi antpropozentrik qarashlar bilan uzviy bog'liqdir, bu esa inson va qadriyat o'rtasidagi bog'liqlikdan darak beradi. Mazkur sohani o'rganish hamda tahlil qilishda ko'plab metodlardan foydalaniladi:

Korpus tahlili – katta matnlar to'plamida aksio birliklarning ishlatilish chastotasini va kontekstini aniqlash.

Qiyosiy tahlil – o'zbek va turk tilidagi qadriyat birliklarini solishtirish, ularning tarjima va semantik o'xshashliklarini aniqlash.

Diskursiv tahlil – matn va nutq kontekstida qadriyatlarining kommunikativ funksiyasini aniqlash.

Sotsiolingvistik yondashuv – yosh, jins va hudud omillariga qarab qadriyat birliklarining ishlatilishini oʻrganish.

Masalan, oʻzbek tilida “hurmat” soʻzi koʻproq oilaviy kontekstda ishlatilsa, turk tilida “saygi” kengroq rasmiy va jamiyat kontekstida ishlatiladi. Shu kabi tahlillar til va qadriyatlarining madaniy tafovutlarini ochib beradi.

Aksiologiya ilmiy va amaliy jihatdan quyidagi sohalarida foydali:

Taʼlim: Talabalarni nafaqat lugʻaviy, balki madaniy kontekstni tushunishga yoʻnaltiradi.

Tarjima: Qadriyat birliklarini toʻgʻri aks ettirish tarjima sifatini oshiradi.

Madaniy tadqiqotlar: Turli xalqlarning qadriyat tizimini oʻrganish va solishtirish imkonini beradi.

Elektron resurslar: Interaktiv ikki tilli lugʻatlar va aksiologiya darsliklar yaratishda foydalidir.

Aksiologiya til va qadriyatni birlashtiruvchi ilmiy yoʻnalish boʻlib, til birliklarining semantik va aksiologik qiymatini aniqlash imkonini beradi. Oʻzbek va turk tilidagi misollar orqali qadriyat birliklarining madaniy tafovutlari va umumiylik koʻrinadi. Shu bilan birga, aksiologiya ilmiy tadqiqotlar, tarjima amaliyoti va taʼlim jarayonini boyituvchi yoʻnalish sifatida rivojlanmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Graeber D. Toward an Anthropological Theory of Value. The False Coin of Our Own Dreams, New York: Palgrave Macmillan, 2001, 317 p.
2. Komilova G. Hayot-buyuk qadriyat sifatida // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2021, 2-son.- B.209.(208-212)
3. Munniqulov I. Qadriyat lingvoaksiologik kategoriya sifatida// “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2022, No 5 (46).- B.33 29-36.
4. Saydaliyeva M. Aksiologiya baho tushunchasiga oid ilmiy qarashlar tahlili// Yangi Oʻzbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali, Volume 3 Issue 1. - 02.06.2025. – B.526 (526-530)
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Falsafa>